

## MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLANING KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

**Abdusalomova Rayxona Abdurashid qizi**

Termez State Pedagogical Institute

Faculty of preschool education

2nd year student

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalarni kitobga qiziqtirish, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va bu borada ota-onalarning o'rni haqidagi fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kitobga qiziqish, kitobxonlik madaniyati, ma'naviy barkamollik, ilmi, ziyoli yoshlar, oilaviy muhit, oilaviy qadriyatlar, ma'naviy daraja.

Kitob insonni ulug'laydi, Vatanni sevish, insonparvarlik, o'zi yashab turgan hayotga shukronalik hissi bilan qarash, boshqalarga mehr-muruvvatli va xushmuomala bo'lish, atrofdagi insonlarga yaxshilik ulashish kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi. Kitobning inson hayotidagi ahamiyati beqiyos bo'lib, u inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo'lguvchi sodiq do'stdir. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, bugungi kunda yoshlar va aholi o'rtasida kitobga bo'lgan qiziqish va kitobxonlik darajasini oshirish hamda kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Kitobxonlik amalda keng joriy etish jarayonida birinchi navbatda mavjud kutubxonalarini rekonstruksiya qilish ularning moddiy-texnik bazasini yangilash, kerakli ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, kutubxonalar faoliyatida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishimiz va undan samarali foydalanishimiz mumkin. Bu ishlarni amalga oshirilishi uchun zarur chora-tadbirlar belgilab berilgan va ularning ijrosi muntazam nazorat qilib borilmoqda. Buning yorqin dalili sifatida yurtimizni rivojlantirishdagi 5 ta muhim tashabbusga "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish"ni yo'nalish sifatida belgilab berilganligi fikrimizga yorqin misol bo'ladi. Buyuk bobokalonlarimiz ham bola tarbiyasida kitobning o'rni benihoya katta ekanligini, uni tafakkurning tolmas qanoti sifatida inson ma'naviy olamini boyitishi, yuksak ijodiy va yaratuvchilik vositasi sifatida nihoyatda qadrlash hamda undan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlan o'tganlar.

Mutaxassislar bola hayotining ilk yosh davrini "mo'jizalar davri" deya nomlaganlar. Bu davrda bolalarga kitob oqishga tayyorlanadi. Bunda avval nutq

malakalarini, eshitish va so‘zlashishni mukammal o‘rganib olishlari lozim. Bolalarni kitobga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish jarayonini biz albatta oiladan boshlasak juda ijobiy natija berishi va undan keyin maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikda davom ettirsak kutilgan natijaning yanada samarali bo‘lishi mumkin.

Biz qurayotgan demokratik-xuquqiy jamiyatning uch muhim tomoni bor: iqtisodiyot, siyosat va ma‘naviyat. Bu tomonlar qancha mustahkam va baquvvat bo‘lsa kelajagimiz ravnaqi ham baquvvat bo‘ladi. O‘zbekistonning buyuk davlatlar qatoriga kirishi, kelajagi obod va farovon bo‘lishi, huquqiy demokratik davlat adolatli fuqarolik jamiyati maydonga kelishi ko‘p jihatdan yoshlar tarbiyasiga bog‘liq. Biz yashayotgan zamin qadim zamonlardan beri madaniyat va ziyo maskani bo‘lib, halqimiz esa dunyoni larzaga keltirgan ulug‘ zotlarni tarbiyalab, voyaga etkazgan halqdir. Bugungi kunda faxrlanib, moddiy meros borasida ham, ma‘naviy meros borasida ham dunyoning sanoqli mamlakatlarigina bizning davlatimiz bilan bellasha olishi mumkin deb, baralla ayta olamiz. Asrlar osha qanday yutuq va marralarga erishgan bo‘lsak, albatta, buning zamirida halqimizni kitobga bo‘lgan mehr va mutolaaga bo‘lgan ishtiyoqi mujassam bo‘lgan.

Kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir tashviqot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar va kutubxonachi va targ‘ibotchilar o‘rtasida “Eng kitobxon maktab”, “Eng kitobxon mahalla”, “Eng kitobxon oila”, “Eng faol kutubxonachi”, kabi ko‘rik tanlovlarning saralash bosqichlarini yuqori saviyada o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish kabi muammolar ko‘zga tashlanmoqda. O‘zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanish imkoniyatlaridan to‘laroq foydalanishga ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talabiga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi ro‘lini oshirishga yo‘naltirilgan tadqiqodlar olib borilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida bola shaxsiyatini, uning boshqalar bilan o‘zaro ijobiy munosabatini shakllantirish, axloqiy tasavvurlarni rivojlantirish, vatanparvarlik xissiyotlarini uyg‘otishga alohida e‘tibor beriladi.

Xulosa qilib aytganda, barcha ezgu ishlarning, bunyodkorg‘oyalarning asosi bu kitobdir. Bizga ilm nurlarini sochadigan ham kitobdir. Shuning uchun ham biz bugungi kunda kitobga bolgan qiziqishni oiladan boshlasak va bu uchun ularni yoshiga mos kutubxonalarni shakllantirsak nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi. Bolada o‘qish malakalarni shakllantirish negizida og‘zaki nutq rivojlanish va kitobga muhabbatni oshirish lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. G‘oziyev E. G».Ontogenez psixologiyasi, T.: 2010 yil.
2. Nasiba Erxonova, Zuhra Ro‘ziyeva “Tarbiyachi kitobi”. Toshkent 2019 yil.
3. QM Hikmatullayevna (2022). [TO DEVELOP THE CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION IMPORTANCE](#) TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI 2 (12), 262-264
4. M Quvvatova, R Abdusalomova (2023). [REQUIREMENTS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVE ABILITIES BASED ON A COMPETENCE-BASED APPROACH](#) Наука и инновация 1 (9), 137-139
5. Quvvatova, M. H. (2023). TALABALARNING KREATIVLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARINI NAZARIY ASOSLASH. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 382–386. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3993>
5. Quvvatova, M. H., & Nabiyeva , F. I. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 80–82. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3929>
6. Quvvatova, M. H., & Mahmudova , S. S. qizi. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 86–88. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3931>
7. Quvvatova , M. H., & Abdusalomova , R. A. qizi. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 77–79. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3928>
8. Quvvatova, M. H., & Abdusalomova , R. A. qizi. (2023). PEDAGOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVE ABILITIES. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3729>
9. X Nuritdinova “MAKTABGACHA TAYYORLOV YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI” Евразийский журнал академических исследований 2022/3/17 <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/1492>
10. X Nuritdinova “SHAXSNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY VAZIFALARI” Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar 2022/12/15 <https://zenodo.org/record/7445514>

11. XN Nuritdinova. “KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MOHIYATI VA UNING MUTAXASSISNI KASBIY SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI” Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. 1, № 7, 158-160, 2022.12.15
12. X Nuritdinova. “MULOQOT MUAMMOLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MAZMUN TAVSIFI” «zamonaviy Dunyoda Innovatsion Tadqiqotlar: Nazariya Va Amaliyot» Nomli Ilmiy, Masofaviy, Onlayn Konferensiya, 1(28), 135–137. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7445534>
13. XN Nuritdinova. “TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI” Educational Research in Universal Sciences, 2, № 9, 212-214, 2023.9.21
14. XN Nuritdinova “TA’LIM JARAYONIDA BO ‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH” Экономика и социум, 5-1 (108), 252-255, 2023, <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-jarayonida-bo-lajak-mutaxassislarning-kommunikativ-kompetentliligini-rivojlantirish-orqali-kasbiy-tayyorgarligini>